

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

# **IJTIMOY PSIXOLOGIYA**

**f a n i d a n  
(ma'ruzalar matni)**

**Termiz-2009**

Ushbu ma'ruzalar matni Psixologiya kafedrasining 2009 yil 27 avgust kunidagi 1-yig`ilishida muhokama etilgan va foydalanish uchun tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:**

**pfn.T.S.Jo`raev**

## K I R I SH

Shaxs va uning kamoloti muammosi taraqqiy etayotgan va o`z taraqqiyotining yuksak cho`qqisiga intilayotgan jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. Shaxs va jamiyatning o`zaro uyg`unligini uzviy bog`liq dolzarb muammo tariqasida o`rganuvchi fan va ilmiy tadqiqot sohasi, ular tomonidan qo`lga kiritiladigan yutuqlar aynan yurtimizda kadrlar tayyorlashning Milliy dasturini hamda Ta'lim Qonunini ijtimoiy hayotga tatbiq etishda o`z hissasini qo`shmog`i lozim.

Ijtimoiy psi psixologiyaning ilmiy bilimlar tizimida tutgan o`rni, univujudga kelish tarixi, metodologik asoslari, shaxslararo munosabatlarning tabiati va qonuniyatlari, guruhlar va jamoalar, shaxslararo munosabatlar tizimida muomalaning tutgan o`rni, shaxsning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi kabi mavzular ushbu ma'ruzalar matnida baholi qudrat yoritilgan.

Ma'ruzalar matni namunaviy ishchi o`quv dasturi asosida tuzilgan, mavzular yuzasidan nazorat savollari va kurs bo`yicha adabiyotlar ro`yxati keltirilgan.

## **1-mavzu: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYANING PREDMETI**

**Shaxs** - muayyan jamiyat a'zosi, jamiyat a'zosi sifatida u turli munosabatlar tizimida bo'ladi. Shaxs jamiyatdantashqarida, uning ta'sirisiz mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun ham shaxs va jamiyatning o'zaro bog'liqligi masalalari muhim, dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jamiyatni insonlar majmui ana shu insonlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarning tabiatiga, ular amalga oshiradigan murakkab ijtimoiy hamkorlik faoliyatining mazmuniga bog'liq. Har bir inson jamiyatda yashar ekan, u unda o'ziga xos o'rin va mustaqil mavqe egallashga intiladi. U o'ziga intilish, layoqat va faollik namunalari namoyon qiladi.

Insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hamda har bir shaxsning jamiyatdagi o'rnini va uning turlicha ijtimoiy munosabatlari tabiatini o'rganuvchi bir qator ijtimoiy fanlar mavjud bo'lib, ularning orasida ijtimoiy psixologiya alohida o'rinni egallaydi.

Ijtimoiy psixologiya-shaxsning ijtimoiy guruh a'zosi sifatidagi faoliyati va hulq-atvori qonuniyatlarini hamda guruhlarning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi fandır. Ijtimoiy psixologiya odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli hulq-atvor shakllarini tushuntirib beradi.

Demak, har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normallarga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlar va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning psixologik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish-ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasidir.

Ijtimoiy psixologiya va umuman ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi–barkamol avlod tarbiyasini ta'minlovchi barcha ma'naviy, ruhiy insoniy munosabatlar mohiyatini taqiqlash, ularni boshqarishning eng samarali usullarini tadbiq etishdir.

Ijtimoiy psixologiya boshqa bir qator ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'langan. Ular qatoriga-sotsiologiya, pedagogika, falsafa, umumiy psixologiya kabi fanlarni kiritish mumkin.

Sotsiologiya ijtimoiy, guruhviy va individual qadriyatlar va normalar tabiatini hamda xarakterini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya ular

shakllanishlarining aniq xususiyatlari hamda u yashaydigan makro va mikro muhitning ta'siri hisobga olinadi. Agar sotsiologiya shaxs faolligining ko`rinishlarini tadqiq etsa, ijtimoiy psixologiya esa bu faollik namoyon bo`lish qonuniyatlari va yo`llarini tadqiq qiladi, bu faollik to`liq amalga oshirishining sharoitlarini aniqlashga yordam beradi. Sotsiologiya turli xil insoniy guruhlar ichidagi shaxslararo aloqalarning ijtimoiy mohiyatini ochib beradi. Ijtimoiy psixologiyani esa bu munosabatlar alohida kishining faoliyati va ayrim guruhlarda qanday namoyon hamda ularning shaxs sifatleri shakllanishiga ko`rsatadigan ta'siri qiziqtiradi.

Pedagogikada qo`lga kiritilgan tajribadan foydalanar ekan, ijtimoiy psixologiya shaxs va jamoaga tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish yo`llarini ochib beradi. Ijtimoiy psixologiya pedagoglarni jamoalar, ularda shaxslararo munosabatlarni psixologik tahlil qilishning ilmiy usullari bilan qurollantiradi va bu orqali eng muhim masala, yangi insonni shakllantirish, turli xildagi guruhlar xususan, oila, maktab, o`quv va pedagogik jamoalardagi muloqot va o`zaro ta'sir jarayonida vujudga keladigan o`zaro munosabatlarni o`rganadi. Bunday bilimlar tarbiyani psixologik jihatdan to`g`ri tashkil qilish uchun zarurdir.

Shuningdek, psixologiyaning har bir tarmog`ida bo`lgani singari ijtimoiy psixologiyani o`rganish ham umumiy psixologiyani o`rganishdan boshlanadi, chunki psixikaning umumiy qonuniyatlarini, asosiy tushunchalarni chuqur bilmasdan turib, ijtimoiy psixologiya qilishi lozim bo`lgan muammolarni ko`rib chiqishi mumkin.

#### **Ijtimoiy psixologiya asosiy bo`limlari quyidagilardan iborat:**

1. Ijtimoiy guruhlar va ularning psixologik xususiyatlarini o`rganish.

2. Shaxs psixologiyasi

3. Kishilarning birgalikdagi faoliyatlarida amalga oshiriladigan o`zaro ta'siri va muloqot jarayonlari qonuniyatlarini o`rganish.

4. Turli xil jamoalardagi shaxslararo munosabatlar.

Har bir shaxs hamisha ma'lum ijtimoiy guruhlar doirasida faoliyat ko`rsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi va boshqalar. Shaxsning yakka va turli guruhlar doirasiga o`zini tutishi, xulq-atvori, mavqei, unga o`ziga xos guruhiy tazyiqqa beruluvchanlik kabi qator hodisalarni o`rganish ijtimoiy psixologiyaning muhim sohalaridan biridir

Shaxs psixologiyasi, uning ijtimoiy-psixologiya qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o`zgarishlar va ma'naviy jihatdan poklanish davrida o`ta muhim sohadir.

Har bir shaxsning jamiyatda ro`y berayotgan tub islohotlarga munosabati, ularni idrok qilish va anglash darajasi, o`z-o`ziga nisbatan munosabatining tabiati, xulqidagi ijtimoiy motivlar va yo`nalishlar katta ahamiyatga egadir. Jamiyat miqyosida ro`y beradigan ommaviy hodisalar shaxs tabiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarining ta'sirini inkor etib bo`lmaydi.

Ijtimoiy psixologiya o`rganadigan eng asosiy masalalardan biri-muomaladir. Bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning predmeti ham va uning doirasida o`tkaziladigan barcha tadqiqotlarning umumiy ob'ekti ham muomaladir. Uning inson hayotida tutgan o`rnini aniqlash, turli ijtimoiy faoliyatlar sharoitida samara beradigan muomala turlari va uslublarni yoritish, uning sof psixologik mexanizmlarini tadqiq etish, fanning eng tatbiqiy yo`nalishlaridandir.

Ijtimoiy psixologiya juda qadimiy va shuning bilan birga u o`ta navqiron fandir. Uning qadimiyligi insoniyat tarixi bilan belgilanadi. Ular aslini olib qaraganda u yoki bu jamiyatda yashagan kishilar o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning va tafakkurning hosilasi ekanligi bilan e'tirof etilsa, u-o`z uslubiyoti, predmet iva fanlar tizimida tutgan o`rnining yangiligi insoniyat taraqqiyotining eng yangi davrida shakllanganligi va rivojiga turtki berganligi bilan tavsiflanadi. Darhaqiqat ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida tan olinishi xususida so`z borar ekan, uning rasman e'tirof etilishi 1908 yil deyiladi. Chunki, aynan shu yili ingliz olimi V.Makdugall o`zining «Ijtimoiy psixologiyaga kirish» kitobini, amerikalik sotsiolog E.Ross esa «Ijtimoiy psixologiya» deb nomlangan kitobini chop ettirgan edi. Bu asarlarda birinchi marta alohida fan-ijtimoiy psixologiyaning mavjudligi tan olindi va uning predmetiga ta'rif berildi. Ikkala muallif ham-biri psixolog, ikkinchisi sotsiolog bo`lishiga qaramay, bu fanning asosiy predmeti ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlarini uyg`unlikda o`rganishdir degan umumiy xulosaga kelishgan. Tug`ri, mazkur mualliflarning har xil fan sohasining vakili ekanligi, ularning ijtimoiy psixologik hodisalar tabiaini yoritishga nisbatan o`ziga xos qarashlarining mavjudligi va bunday yondoshuv to hozirgacha davom etayotganligiga asos bo`ldi. Rus olimasi

G.M.Andreeva ta'kidlaganidek, ijtimoiy psixologiya sohasida ishlayotgan mutaxassisning aslida Kim ekanligi sohasida ishlayotgan mutaxassisning aslida Kim ekanligi-psixologmi, faylasufmi yoki sotsiologmi,-uning Ushbu fan predmetiga yondoshuvida o'z aksini topadi, chunki agar u sotsiolog bo'lsa, ijtimoiy qonuniyatlarini avval boshdan jamiyatdagi an'analar va umumiy qoidalar tilida tushuntirishga intilsa, psixolog-konkret olingan shaxs psixologiyasining qonuniyatlarini umumjamiyat qonunda ham, shuni asosli tarzda e'tirof etish zarurki, ijtimoiy psixologiyaning alohida fan bo'lib ajralib chiqishiga sabab bo'lgan ilmiy manbaalar ikki fan-psixologiya va sotsiologiya fanlarining erishgan yutuqlarm va qaysisining doirasida ma'lum muammolarning echilishi uchun yana qo'shimcha alohida fanning bo'lishi lozimligini uzoq yillar mobaynida ijtimoiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borayotgan shaxsning kimligiga qarab, izlanishlarning natijalarida u yoki bu yondashuv-psixologik yoki sotsiologik yondoshuvning ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlandi. Demak, bu fanning tug'ilishi, o'z predmeti sohasini aniqlab olishiga sabab bo'lgan sotsiologiya va psixologiya fanlari aslida uning «ota-onalaridir».

Turli xildagi jamoalarda insonlarning o'zaro ta'sir jarayonlariga qiziqish ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrlaridayoq vujudga kelgan. Insonlar ijtimoiy hulq-atvorini dastlabki kuzatishlar, ya'ni ijtimoiy psixologiya hulq-fanining asoalari, antik davrlarda Platon va Aristotel keyinchalik uyg'onish davrida P. Golbox, K. Gel'veiy, D.Didro, J.J.Russo asarlarida Rossiyada A.K.radixev va XVIII asrning bir qator olimlari asarlarida kuzatilgan. Bu asarlar turli guruhlardagi shaxs psixologiyasi haqidagi tugallangan bilimlar tizimli bo'lmasada, individning jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyoti qonuniyatlarini tushunishga intilish keltirib chiqaradi. Shu tariqa dastlabki ijtimoiy-psixologiya nazariyalarning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Bunday ijtimoiy psixologik nazariyalari XIX asrning oxirlarida paydo bo'ldi.

Amerika va Evropada XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Ijtimoiy psixologiya nazariyalar yaratishga bo'lgan birinchi urinishlar turli xil psixologik, sotsiologik maktab namoyonlari-G.Tard, G.Lebon, U.Mak-Daugal-S.Sigel, E.Dyurkgeym nomalri bilan bog'langan. Ijtimoiy psixologiya bo'yicha U.Mak-Daugalning «Ijtimoiy psixologiyaga kirish» nomli asarini birinchi nashr deb hisoblash mumkin. Bu asar 1908 yilda

shar qilingan bo`lib, bu sana ijtimoiy psixologiyaning vujudga kelish davri deb hisobalandi.

Ijtimoiy psixologiya asoschilari ijtimoiy hodisalarni tushuntirishda faqat psixologiya pozitsiyasida umumiy qonuniyatlarni topishga urinib ko`rdilar. Bunda inson bilan jamiyat o`rtasidagi o`zaro ta'sir qonuniyatlarini tushunishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarining roli hisobga olinadi. Ular barcha tarix qonunlarini psixologiya qonunlari bilan noto`g`ri almashtirdilar. Barcha ijtimoiy holatlarni psixik holatlar bilan almashtirib yubordilar. «Jamiyat» so`zining sinonimii «omma» deb hisobladailar.

Ijtimoiy psixologiya vujudga kelishining uch asosiy manbasi mavjud bo`lib, ular:

1. Halq psixologiyasi nazariyasi
2. Omma psixologiyasi nazariyasi
3. Ijtimoiy instinktlar to`g`risidagi nazariyalar.

**Xalq psixologisi nazariyasi.** XIX asrda Germaniyada vujudga keldi. Unga ko`ra asosiy kuch halq, har bir xalqqa xalq ruhi xos bo`ladi. Xalq ruhi din, san'at, madaniyatda aks etadi. Xalq-yaxlit ruhga ega bo`lsa, inson shu yaxlitning bir bo`lagi. Bunda turli ijtimoiy qatlamlar. Ijtimoiy holat va ijtimoiy ta'sir ko`zda tutilmaydi.

**Omma psixologiyasi nazariyasi.** Bu nazariya ommada kishilarning o`zaro ta'sirini o`rganishga harakat qiladi. Asoschisi Gabriel Tard 1900 yilda uning rus tilida «Taqlid turlari» kitobi nashrdan chiqadi. Bu narsa muvofiq kishilar guruhga birlashsalar, ular bir-birlariga taqlid qila boshlaydilar. Bu taqlid ongsiz bo`lib aqldan hissiyot ustun turadi. Omma beqaror bo`lib aqlga to`g`ri kelmaydigan harakatlar qiladi. Agar unga aqlli boshliq kelsa u ham omma darajasiga tushib qoladi. Omma betartib boshqarib bo`lmaydiganligi sabali unga tashqarisidan dohiy kerak. U yangi qonunlar o`rnatib ommani tartibga soladi. Omma unga ko`r-ko`rona taqlid qiladi.

**Ijtimoiy instinktlar nazariyasi.** Bu nazariyaning asoschisi Vilyam Mak-Daugal hisoblanadi. Ijtimoiy hulqning asosiy sababi ijtimoiy instikntalardir deb ta'kidlaydilar. Bu nazariya tarafdorlari emotsiyalar ham instinktlar bilan bog`langan. U xulq-atvorining bioxekioristik talqiniga qarshi chiqdi.



V.Myode va F.Olport bu nazariyalarni tanqid qildilar. Ular ijtimoiy psixologiya eksperiment asosida qurilishi kerak, degan fikrni ilgari surdilar. Buning uchun esa katta guruhlar emas, balki kichik guruhlar o`rganishi kerak deb hisobladilar.

V.Myode va F.Olport birlamchi guruhlarining o`z a'zolariga biror faoliyatini amalga ochirish jarayonida ko`rsatadigan salbiy yoki ijobiy ta'sirni tadqiq qildilar. Bunda ayniqsa individning guruhga nozitiv yoki negotiv munosabti holari katta qiziqi uyg`otdi.

Ijtimoiy psixologiya asoslari XX asr boshlarida psixologiya fanining uchta yo`nalish ta'siri ostida tashkil qilinadi. Bular:

Geletalpsixologiya, bixeviorizm va psixoanaliz.

Bu ta'sir keyinchalik bir qancha chet el shuningdek amerikalik ijtimoiy psixologlar ishlarida o`z aksini topdi.

Asrimizning boshlarida Rossiyada ijtimoiy psixologiya muammolariga qiziqish kuchayadi. Tadqiqotchilar e'tiborini shaxs muammolari qiziqitira boshladi. 20-yillarda inson hulq-atvori haqida fan sifatida refleksologiya yo`nalishi katta rol o`ynadi. Bu yo`nalishning asoschisi psixonevrolog va psixiatr V.M.Bexterev edi. Bu nazariyaga muvofiq har qanday ongli va ongsiz fikrlash jarayoni tashqi jihatdan ya'ni hatti-harakatdan, hulq-atvorda namoyon bo`ladi. Refleksologiya inson hati-harakatlari tashqi xususiyatlarining jismoniy, biologik va ijtimoiy ta'sirotlar bilan munosabatini o`rganadi. Bunday ta'limotlar uchun xarakterli xususiyat shundan iborat Ediki, ular psixologiya va sotsiologiyadagi qarashlarini «Reflekslar tiliga» o`tkazishga harakat qildilar. Bu esa o`z mohiyatiga ko`ra noto`g`ri yo`nalish edi.

Ijtimoiy psixologiyaning muhim muammolaridan biri shaxs va jamoaning o`zaro munosabatlari muammosi 20-30 yillarda Rossiya birinchi navbada bolara, o`quvchilar jamoalaridan o`tkazilgan tadqiqotlar orqali hal qilindi. Bu davrda bolalar va o`smirlar ijtimoiy psixologiyasida ikkita yo`nalish- biologizatorlik va sotsiologizatorlik oqimlari aniqlandi.

Biroq bu ikala oqim ham shaxsning ijtimoiy hayot sharoitlarida rivojlanishning haqiqiy tasirini Bera olmadilar, individning shaxs sifatida taraqqiy etishida jamoaning rolini olmadilar. Ijtimoiy psixologiyaning keyingi taraqqiyoti shaxsni jamoada tarbiyalash kabi muhim masala bilan shaxs va jamoaning o`zaro ta'sirini mohiyatiga ko`ra mexanik tarzda talqin qilinishining mos kelmasligi sababli to`xtab qoldi.

Guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarga tegishli g`oyalar guruhiy tavsiflash takliflari kabi ijobiy ishlarga qaramay shu davrdagi ko`pchilik asarlarda shaxsiy guruhda rivojlanishning asosiy omili sifatida ularning ijtimoiy muhitga moslashishi ta'sirga beriluvchanlik, taqlidchanlik qaraldi va bolalar jamoasi tarkib topishi qonuniyatlari sotsiologiya va jamoa efleksologiyasi qonunlaridan keltirib chiqarildi.

Ijtimoiy psixologiya oxirgi yillarda psixologiya fanining etakchi sohalaridan biriga aylandi. G.M.Andreevna, A.A.Badalev, E.S.Kuzmin, B.D.Parigin, E.V.Shoroxova, M.G.Yaroshevskiylar tomonidan ko`pgina tadqiqotlar o`tkazildi. Respublikamizda ijtimoiy psixologiya bilan professorlar G.B.Shoumarov, V.M.Karimova va N.Soginav hamda boshqa psixologlar shug`ullanishmoqda. Ijtimoiy psixologiya tadqiqotlar markazida shaxs va jamoa muammolari ubilan bog`liq bo`lgan jamoadagi individlarnning o`zaro ta'siri shaxsning mehnat va o`quv faoliyatida shakllanishi mexanizmalri guruh va jamoalar jinsligini oshirish yo`llarini izlashga bag`ishlangan muhim masalalar turibdi.

Hozirgi kunda ijtimoiy psixologiya kishilarning bir-birlarini tushunish va idrok qilish qonuniyatlarini o`rganish turli hil jamoalardagi ijtimoiy psixologik munosabatlarni kompleks tadqiq qilish, jamoalardagi shaxslaloro munosabatlarning ko`rsatkichlari-jinslik, jamoaning mosligi, jamoatchilik kabilarni aniqlash va boshqa ko`pgina masalalar bilan shug`ullanmoqda.

## **2-mavzu: IJTIMOIIY PSIXOLOGIIYA METODLARI**

Har bir alohida fanda bo`lgan singari ijtimoiy psixologiiyaning o`z metodlari va ularni qo`llash vositalari mavjud. To`g`ri, ularning aksariyati psixologiya va sotsiologiya fanlarida qo`llaniladigan usullarga yaqin, lekin fanning predmetidagi o`ziga xoslikni hisobga olgan ularni ishlatish yo`llari va ma'lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishda farqLar mavjud.

Masalan, umumiy psixologiyada bo`lgani kabi ijtimoiy psixologiyada ham kuzatish metodi qo`llaniladi, lekin kuzatuv ob'ekti konkret shaxsdagi psixik faoliyat bevosita kuzatish mumkin bo`lgan ijtimoiy hulqidir. Ya'ni, kuzatuvchi aniq oldindan belgilangan reja

asosida o`zi o`rganayotgan guruhning faoliyatini, verbal va noverbal hatti-harakatlarni ma'lum vaqt birligida muttasil kuzatib, olingan ma'lumotlarni qayd etib boradi. Bunda zamonaviy audio-va videotexnikadan foydalanish, u yoki bu harakatlarni qayta-qayta ko`rish orqali kerakli xulosalarni chiqarish mumkin. Ijtimoiy psixologiyada qo`llaniladigan kuzatish metodining asosan uch shakli mavjud:

A)«qo`shilib kuzatish»-bunda tadqiqotchi (o`sha) kuzatiluvchilar faoliyatiga bevosita aralashib, ular bilan kerak bo`lsa, yashaydi va ishlaydi. Bu usuldagi eng muhim xususiyat uning tabiiyligi bo`lib, kuzatish ob'ektlari o`zlarining kuzatuvchini guruhning a'zosi sifatida qabul qiladilar. Ushbu shartning buzilishi eksperimentning samarasiz bo`lishiga olib kelishi mumkin;

B)«tashqi kuzatish»-kuzatuvchilar faoliyatiga aralashmagan holda ular tashqi hulq-atvorini qayd qilishdir. Bu usul muayyan vaqt va sabr-toqat talab qilishi bilan boshqa metodlardan farq qiladi, ba'zida qisqa muddat ichida tadqiqotchi o`zini qiziqtiriyotgan predmet xususida hech narsa qayd qila olmasligi yoki tasodifan qo`lga kiritilgan ma'lumot asosida xulosa chiqarishga majbur bo`lishi mumkin. Shuning uchun ham bu usul boshqa usullarga qo`shimcha vosita sifatida ishlatiladi;

V)«muhim vaziyatlarni qayd etish» usulida kuzatishning mohiyati shundaki, alohida shaxs yoki kutilmagan tasodifiy vaziyatga solinadi va ularning vaziyatga munosabati, o`zini tutishi, ziddiyatli va qiyin holatlardan chiqarish yo`llari kuzatiladi. Masalan, guruhni ataylab oldindan tuzilgan stsensariy yordamida munozarali vaziyatga solish va unda har bir guruh a'zosini o`zini qanday tutishi va bayon etgan fikrlarini zikr etish bunga yorqin misoldir.

Agar kuzatish metodi ijtimoiy psixologiyada umumiy psixologiyadan o`tgan usul bo`lsa, hujjatlarni tahlil qilish sotsiologiyadan kirib kelgandir. Bu usul ijtimoiy faoliyatning mahsulini o`rganishga qaratilgan bo`lib, to`plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, matematika va statistika uslublari yordamida qayta ishlash imkoniyatining mavjudligi sababli ma'lum afzalliklarga ega. Bu usulning yana bir nomi kontent-tahlil bo`lib, tahlil qilinadigan hujjatlar toifasiga asosan og`zaki (so`zlangan nutq matnlari, suhbatlarning yozib olingan qismlari bevosita muloqot jarayonlarida qayd etilgan

manbaalar) yoki yozma (rasmiy hujjatlar, gazeta jurnallardagi maqolalar, xatlar, ma'naviy-ma'rifiy adabiyotlar matnlari va shunga o`xshash) holda tavsiya etilgan ma'lumotlar kiradi.

Kontent tahlilni qo`llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo-bu tekshiruv birliklari bo`lishi, kategoriyalarni aniqlashdir. Ko`plab tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtirgan holda tahlil qilish uchun uning birliklari quyidagilar bo`lishi mumkin, deb hisoblaymiz:

A) alohida iboralar yoki so`zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik, tashabbus, hamkorlik va hakoza);

B) yaxlit abzatslar, matnlar, maqolalar va shunga o`xshashlarda ko`tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar, yoshlar ma'naviyati mavzusi hakoza);

V) tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, Taniqli shaxslarning nomlari;

G) ijtimoiy hodisa, rasmiy hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O`zbekiston Konstitutsiyasining muhokamasi, yangi yozilgan asarga o`quvchilarning munosabati va shunga o`xshash)

Yaxshi o`tkazilgan kontent taxlil-aslida ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda juda muhim ahamiyatga ega. Lekin olingan ma'lumotlarning inshonchliligi bahosi, Ayni shu faktni tekshirish uchun boshqa metodlarni ham qo`llash va ma'lumotlarni solishtirish hamda Ayni ob'ektni Ayni vaziyatda qayta tahlil qilish yo`llari bilan erishiladi. To`plangan miqdoriy ma'lumotlar matematik statistika metodlari yordamida qayta ishlovdan o`tkazilmog`i lozim. Kontent-tahlil tadqiqotchidan kattagina uquvni talab qiladi, chunki bir tomondan u yoki bu matnni tushunishning mahorati bo`lishi kerak. Ikkinchidan, tadqiqot so`ngida qo`lga kiritilgan miqdoriy natijalarni yana qayta sifat shakliga keltirish va tushuntirib berish lozim.

**So`rov metodlari.** So`rov metodlari ijtimoiy psixologik talqiqotlarda keng qo`llaniladi, Ayniqsa, anketa so`rovi va intervyu shular jumlasidandir. Bu metodlarni qo`llashda qator metodologik qiyinchiliklar vujudga keladi, birinchidan, doim shaxslararo munosabatlar, o`zaro ta'sir shakllari mavjud, ikkinchidan, tadqiqotchining sub'ektiv munosabatlarini ham inkor qilib bo`lmaydi. Tadqiqot mobaynida shaxslararo idrok qilish va sub'ektiv bir-birini tushunishga qaratilgan barcha qonuniyatlar ishlaydi. Shunga qaramay,

juda ko'p ijtimoiy psixologik ma'lumotlarni eng qulay usullar sifatida ishlatib kelinmoqda.

Intervyu o'tkazish uchun odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak, chunki u tadqiqotchidan qator muhim shaxs sifatlarining bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada «rol o'yinlar» metodi yordamida psixolog yoki sotsiolog maxsus tayyorgarlik kursidan o'tadi.

**Anketa** - metodi hammaga tanish bo'lgan usullardan biri. Lekin ko'pincha anketani o'tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini tasavvur qilmaydi. Anketaga kiritilgan savollar ma'lumotiga ko'ra anketa ochiq va yopiq turlarga bo'linadi. Ochiq anketa respondentdan o'z fikrini erkin bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollarining esa javoblari oldindan berilgan bo'lib, tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, o'zining qarashlari, fikrlari bilan mos kelgan javobni belgilab beradi. Ochiq savollarning kamchiligi respondentlarning har doim ham qo'yilgan vazifaga etarli darajada ma'suliyat bilan qaramasliklari hamda berilgan javoblarni statistik jihatdan ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi (tomonidan o'z) fikriga ergashishga o'xshash holatlarda respondent yo ummuan javob bermasligi yoki «tavakkal» qilib bir variantni belgilab berishi mumkin.

Shuning uchun ham keyingi paytlarda yarim yopiq saolardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari qo'shimcha tarzda fikr bildirish uchun qo'shimcha qatorlar beriladi.

Anketaga kiritilgan savollar to'g'ridan-to'g'ri berilishi mumkin. Masalan, «...xususida Sizning fikringiz?», «...ekanligini bilasizmi?», «...Sizga ma'qulmi?» va shunga o'xshash. Lekin savollar bilvosita berilsa ham u yaxshi qabul qilinadi. Masalan, «Ba'zi odamlar..., deb hisoblaydilar. Sizchi?», yoki oilaviy daromad tadqiqotchini qiziqtirganda to'g'ridan-to'g'ri «Daromadingiz qancha?» demasdan, balki uy-ro'zg'or buyumlari ro'yxati va boshqa pul bilan bog'liq naralarning bor yoki yo'qligini so'rash yo'li bilan ham o'rganish mumkin. Ko'pgina tadqiqotlarda tekshiriluvchilarga «proektiv» saollar ham beriladi. Bunda shaxsga bir qancha hayotiy vazifalar u yoki bu hulq-atvor shakllari taklif qilinib, ular ichidan o'ziga ma'qul, u ma'qullashi mumkin bo'lgan javobni ianlash topshiriladi.

**Ijtimoiy psixologik testlar.** Testlar psixologiyaning maxsus usulidir. Ular qisqa sinov usuli bo`lib, u yoki bu ijtimoiy psixologik hodisa qisqa muddat ichida bir texnik vosita sifatida uning yordamida tekshiriladi. Testlar asrimizning boshida kashf qilingan bo`lib, ular 20-30 yillarda hayotga, amaliyotga shunchalik shiddat bilan kirib keldiki, natijada maxsus soha-psixometrika yuzaga keldi. Testlarni qo`llashning qulaylik tomoni shundaki, bir test yordamida ma'lum ob'ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko`rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo`lmaydi, chunki u yoki bu test muayyan turdagi ob'ektda sinalgan bo`lsa, uni shunga o`xshash ob'ektlardagina qo`llash mumkin, xolos, qolaversa undan olingan ma'lumotlar nisbiy xususiyat kasb etadi.

**Ijtimoiy psixologik eksperiment.** Ijtimoiy psixologik eksperiment-bu ijtimoiy hodisalarni o`rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o`rtasidagi maqsadga yo`naltirilgan muloqotdir. Bunday muloqotning yuzaga kelishi uchun eksperimentator, ya'ni tekshiruvchi maxsus sharoit yaratadi va ana shu sharoitda aniq reja asosida faktorlar to`playdi. Umumiy psixologiyada bo`lgani singari, ijtimoiy psixologiyada ham uning tabiiy va laboratoriya turlari farqlanadi.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, alohida xonalarda, zarur asbob-uskunalar yordamida o`tkaziladi. Chet ellarda birinchi marta laboratoriya sharoitida ijtimoiy psixologik hodisalarni, xususan, yakka tartibda va guruh sharoitida shaxsdagi bilish jarayonlari, tafakkur, sezgirlik va boshqa qator jarayonlarning namoyon bo`lishini G.Ollport, V.Mede, Mayer, K.Levin va boshqalar o`rgangan bo`lsa, Rossiyada birinchi laboratoriya sharoitida ijtimoiy psixologik tadqiqotni rus olimi V.M. Bexterev o`tkazgan edi. U maxsus asboblarda yordamida idrokning aniqligini, xotiraning sifatini, kuzatuvchanlik xususiyatlarini yakka hamda guruhning borligi har bir uning a'zosi psixikaga bevosita ta'sir etishini isbot qildi.

Laboratoriya eksperimenti keyinchalik B.G.Ananov, E.S.Kuzmin V.s.Merlin, V.N.Myasihev, L.I.Umanskiy kabilar tomonidan yangi qirralari ishlab chiqildi va ijtimoiy psixologiyada apparatura uslubi keng qo`llanila boshlandi. Masalan, ingliz olimi R.Eshbi tomonidan kashf qilingan, keyinchalik F.D.Gorbov va boshqalar tomonidan

takomillashtirilgan gomeostat metodi, L.I.Umanskiy tomonidan yaratilgan guruh uchun integratorlar paydo bo`ldi va amaliyotda bir guruh doirasida ro`y beradigan hodisalarni, xususan, guruhdagi bir damlik, o`zaro moslik, liderlik kabi hodisalarni tekshirishda keng foydalanila borildi.

**Proektiv metodlar.** Ular test usullarining bir ko`rinishi hisoblanib, ularda tekshiriluvchiga aniq tizimga yoki ko`rinishga ega bo`lmagan noaniq narsalar tavsiya etildi va ularni sharhlash topshirig`i beriladi. Binobarin, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bulgan rasmlar, tugallanmagan hikoyalar, biror aniq ko`rinishi mavjud emas buyumlar, yog`ochlar berilishi, yoki ularga qarab tekshiriluvchi o`zining hissiy kechinmalari, qiziqishlari, Duneqarashi nuqtai-nazaridan baholashi kutiladi.

Proektiv usullar qatoriga mashhur «Rorshaxning siyoh dog`lari» testini kiritish mumkin (1921 y). Bu-ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog`lardan iborat bo`lib, har bir «dog`» nimaning shaklini eslatishi so`raladi. Uning og`zidan chiqqan so`zlar, assotsiatsiyalarga qarab (ularni kontent-tahlil qilib), shaxs xususiyatlari yuzasidan xulosa chiqariladi. Yana bir proektiv usul-bu S. Rozentsveygning rasmlari assotsiatsiyalaridir. Bunda turmushda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda gapirayotgan holda gavgdalantiriladi, unga qarama-qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiriluvchidan tekshiruvchi tez, qisqa muddat ichida bo`sh kataklarga qaytarilishi kutilayotgan javobni yozishni so`raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo`nalishi, uning zidiyatlariga munosabati, jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o`xshash muhim faktlar to`planadi.

Shunday qilib, biz ijtimoiy psixologiyada an'anaviy qo`llanib kelinayotgan asosiy metodlarga to`xtalib o`tdik. Lekin hozirgi davrda hayot fandan tatbiqiy xususiyatga ega bo`lishini talab qilayotganligi tufayli bu qatorga bir turkum metodlarni kiritish lozimki, ular ijtimoiy psixologiyadagi faol tayyorgarlik metodlari deb ataladi. Ularga ijtimoiy psixologik treningning barcha shakllari kiritiladi. (har birining batafsil tafsiloti ushbu kitobning keyingi boblarida bayon etiladi). Ular o`z

mohiyatiga ko`ra, shaxs va guruhning ma'lum sifatlarini shakllantiruvchi eksperimentni eslatadi. Lekin ularning faol metodlar toifasiga kiritilishiga asosiy sabab-bu usullar yordamida qisqa fursatda bevosita muloqot sharoitida kutilayotgan samaraga erishilishidir. Ya'ni tahlil qilib chiqilgan metodlardan shaxsdagi yoki guruhda shakllangan xususiyatlarni qayd qilish emas, balki tarkib toptirish lozim xislatlarni amaliyotchi psixolog yoki ijtimoiy xodimning faol aralashuvi orqali hosil qilishga qaratilgandir. Ijtimoiy amaliyot sohasiga kirib kelayotgan Ushbu metodlar turkumi tafsilotiga kitobda keng o`rin berilgan.

### **3- mavzu: IJTIMOIIY PSIXOLOGIIYADA GURUHLAR VA JAMOA**

Olimlarning hisoblariga ko`ra, Er yuzida nafaqat 5,5 milliardga yaqin individlar, balki ulardan iborat bo`lgan 200 ga yaqin milliy-davlatchilik tuzilmalari, 4 millionga yaqin aholi punktlaridan iborat geografik hududlar, 20 mln.dan ziyod iqtisodiy uyushmalar, yuzlab millionli turli rasmiy va norasmiy tashkilotlar va muassasalar (oilalar, mahallalar, cherkovlar, turar-joy shirkatlari va hokozo) mavjud bo`lib, ularning alohida shaxslarga ta'sirini bilish muhim masaladir.

Odamlar o`rtasidagi yoki boshqacha qilib aytganda, shaxslararo munosabatlar asosan guruh sharoitida, shaxs ma'lum insonlar davrasida, guruhida, jamoada bulgan taqdirda ro`y beradi. Shaxsga bir vaqtning o`zida turli ijtimoiy guruhlarning ta'siri bo`lib turadi.

**Guruh** - ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to`plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasidir. Sodda qilib aytadigan bo`lsak, guruh-ikki va undan ortiq odamlar o`zaro muomala qiladigan va bir-birlariga ta'sir qiladigan uyushmadir. Guruh uchun ikkita asosiy mezon mavjud: biror faoliyatning bo`lishligi (mehnat, o`qish, o`yin, muloqot, maishiy manfaatlar) hamda u erda odamlarning o`zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi.

Shaxs ijtimoiy mavjudot. U o`zining hayoti davomida boshqa kishilar bilan bevosita muloqotda bo`ladi va bu orqali o`zining ijtimoiy mohiyatini amalga oshiradi. Bunday muloqot turli xil guruhlarda ro`y beradi. Guruhlar bir necha asos bo`yicha tavsiflanishi mumkin. Bular:

1. O`zaro munosabatlarning yaqinligi va chuqurligiga qarab kichik va katta guruhlar farqlanadi.



2. Tuzilish, tamoyili va usuli bo'yicha-shartli, real rasmiy va norasmiy guruhlarga bo'linadi.

3. Shaxsning guruh normalariga bo'lgan munosabatiga ko'ra referent guruhlari farqlanadi.

Guruhlar undagi odamlar soniga ko'ra katta va kichik guruhlarga bo'linadi.

Psixologiyada ko'proq kichik guruhlari o'rganiladi.

Katta guruhlari. Bu umumiy fazo va makonda mavjud bo'lgan ko'p sonli jamoasiga maktab pedagogik jamoasini misol qilish mumkin. Biroq bu kishilar, masalan ko'pchilik o'qituvchilar bir-birlari bilan bevosita o'zaro aloqalarda bo'lmasligi ham mumkin, lekin shu bilan bir vaqtda ularning barchasi Ayni bir rahbarga bo'ysunadi, bitta kasaba uyushmasi a'zosi hisoblanadi hamda maktab ichki hayotining barcha qoidalariga amal qiladi.

**Kichik guruh** - nisbatan barqaror, tarkibi jihatidan a'zosi unchalik ko'p bo'lmagan, umumiy maqsad bilan bog'langan kishilarning birlashmasi.

Bunda kichik guruh a'zolari o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatiladi va amalga oshiriladi. Bu guruhda umumiy maqsad bo'lib, uning a'zolari bu maqsadga erishish yo'lida o'zlarining barcha kuchlarini safarbar etadilar. Kichik guruhga kiruvchi kishilar bir-birlarini shaxsan biladilar va gurux oldida turgan vazifalarni hal qilish uchun bir-birlari bilan muloqotda bo'ladilar.

Uni necha kishi tashkil etishi, necha kishining hamkorlikdagi faoliyati ko'proq samara berishi masalasi Amaliy ahamiyatga egadir. Ko'pchilik olimlar guruhning boshlang'ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan ikki kishini tan olishadi. Masalan: yangi oila qurib, birga yashayotgan kishilar, sevishganlar, ikki do'st-o'ziga xos kichik guruh.

R.S.Nemov kichik ijtimoiy guruhlarning quyidagi tasnifini taklif etgan:

Shartli (nominal) guruh-faqatgina nom jihatdan mavjud bo'lgan kishilar bir-birlari bilan xech vaqt uchrashmasliklari ham mumkin, lekin shu bilan birga guruhga ajratish bo'yicha umumiy ijtimoiy psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, o'smirlar mamlakatimizning qaysi shahar va qishlog'ida yashashidan, hech qachon bir erga

to`planmasliklaridan qat'iy nazar shartli guruhga birlashtirilishi mumkin.

Real (haqiqiy) guruh-haqiqatdan mavjud bo`lgan kishilarning uyushmasidir. Bu guruhdagi kishilar real aloqa va munosabatlar maqsad va vazifalar bilan o`zaro bog`langan bo`ladilar. Real guruh qisqa vaqt yoki uzoq muddat davomida mavjud bo`lishi, son jihatdan ko`p yoki oz bo`lishi ham mumkin.

Rasmiy (formal) guruh-rasmiy hujjatlar asosida tuzilgan guruh (nizom, shtat) ishlab chiqarishdagi ta'minot bo`limi, oliy o`quv yurtidagi talabalar guruhi-rasmiy guruhlardir. Bunday guruh a'zolari o`rtasidagi ish yuzasidan bo`ladigan aloqalar o`rnatiladi, bu aloqalar huquqlikni topshiriq bajarishdagi javobgarlikning kam bo`lishini ko`zda tutadi.

Norasmiy (noformal) guruh- psixologik motivatsiyaning yagona yo`nalishi asosida simpatiya qarashlarning yaqinligi e'tiqod asosida vujudga keladi. Bunda rasmiy hujjatlar hech qanday kuchga ega emas. Agar simpatiya va o`zaro bog`liqlik yo`qolsa guruh ham tarqab ketadi.

Referent (etalon) guruh-real yoki hayolan mavjud bo`lgan guruh bo`lib, uning qarashlari qonun-qoidalari namuna bo`lib hisoblanadi. Guruh normalarini tan oluvchi, ularni eng yaxshi deb hisoblovchi va ularga qo`shiluvchi shaxs shu guruhga Kirishi mumkin. Bunda shaxs bu normalarga qo`shilibgina qolmay ularni himoya qiladi va zarur bo`lsa tashviqot qilishi mumkin.

Har bir guruh o`ziga xos psixologik tizimga ham ega. Uni tashkil etuvchi elementlar nisbatan barqaror bo`lib, ular guruh a'zolari hulq-atvorini muvofiqlashtirib turadi. Avvalo guruhning maqsadini ajratish kerak.

Maqsad-odamlarni jamoa mehnati atrofida uyushtirib, birlashtiruvchi psixologik elementdir. Masalan-barcha talabalarning maqsadi-o`qish, professional malaka orttirib, mutaxassis bo`lib etishishi guruhning **avtonomligi darajasi** ham ma'lum ahamiyatga ega omil, chunki har bir a'zo umumiy maqsad asosida birlashgan bo`lsa ham, ularning har birining o`z burch va vazifalari bor va shu nuqtai-nazardan har odam o`z imkoniyatlarini o`ziga ishga solib, o`zaro munosabatlarga sabab bo`ladi. Guruhning psixologik tizimga ta'sir etuvchi omillariga yana ularning jinsiy, yosh jihatdan, ma'lumoti va malakasi nuqtai-nazaridan farq qiluvchi va uyg`unlikni tashkil etuvchi omillar ham

kiradi. Guruhning uyushganligi ham dinamik ko`rsatgichlardan bo`lib, shu nuqtai-nazardan har bir guruh bir-biridan farq qiladi. Masalan, odamlar hamkorlikda bajarayotgan ishning qiziqarli, va hamma uchun manfaatli ekanligi, guruh me'yorlarining a'zolarining a'zolar tomonidan umuman olganda qabul qilinishi, qadriyatlar tizimini tasavvur qilishdagi fikrlar mosligi uyushqoqlikning mezonlaridir.

Guruhlarni rivojlantirish darajasiga ko`ra bir qancha turlarga ajratish mumkin. Bular:

1. Tashkil etilmagan guruhlar;

a) assotsiatsiyalar;

b) diffuz guruhlar;

2. Tashqaridan tashkil etilgan guruhlar; tashkilotlar- ishlab chiqarish, o`quv, kasaba uyushma tashkilotlari, harbiy qism, turli xil jamiyatlar.

3. Ichkaridan tashkil etilgan guruhlar;

a) korporatsiya;

b) jamoa;

Odamlar ijtimoiy birlashmasi rivojlanishining yuqori shakli-jamoadir.

**jamo**a - bu kishilarning faoliyatining umumiy maqsadga erishish yo`lida psixologik jipsligi va umumiy foydali motivlar bilan tavsiflanuvchi guruhdir.

Jamoaning muhim belgisi-maqsad va vazifalarning ijtimoiy ahamiyatiga ega ekanligidir. Agar bu belgi bo`lmasa, guruh jamoa deb atalishi mumkin emas.

Faoliyat maqsadga ko`ra:

a) kasbiy jamoalar ishlab chiqarish jamoalari, ijodiy, harbiy, o`quv jamoalari;

b) ijtimoiy tashkilotlar-kasaba uyushma, turli xil partiyalar, yoshlar tashkilotlari;

v) ko`ngilli jamiyatlar-ilmiy, ilmiy-tashviqot, harbiy, sport tashkilotlari.

g) havaskor jamoalari-badiiy havaskorlik jamoalari, kolleksionerlar jamiyati kabilar farqlanadi.

Boshqa jamoalar tizimida tutugan o`rni va aloqalariga qarab, birlamchi va asosiy jamoalarda shaxs ikki xil munosabatda-xizmat yuzasidan bo`ladigan va shaxsiy munosabatlarda bo`ladi.

Xizmat yuzasidan bo`ladigan munosabatlar. Guruh tarkibi bilan birga hujjatlarga qayd etiladi. Shaxsiy munosabatlar shaxslararo tizimini tashkil etadi.

Guruh a'zolari bir-birlariga nisbatan bir xil holatda bo`la olmaydilar. Guruhning har bir a'zosi o`zining shaxsiy va ishga taalluqli bo`lgan sifatlariga, o`zining mavqeiga ko`ra guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida muayyan holatga egallaydi.

O`tkazilgan tadqiqotlarning ko`rsatishicha, ayrim kishilar boshqalarga nisbatan ko`proq obro`ga ega bo`ladilar.

Eksperiment ma'lumotlarga ko`ra sinf jamoasida, ya'ni 30-40 o`quvchi ichida eng mashhur, obro`lisi 3-4 o`quvchi bo`lishi mumkin

Ularning mashhurligi nimaga bog`liq?

Birinchi buning sababi bu o`quvchilarning guruhning boshqa a'zolari bilan aloqa o`rnata olish malakalaridir.

Ikkinchi shaxs o`zining bilimi va malakalari tufayli bu bilimlar bilan o`rtoqlashib boshqa kishilarga beg`araz yordam ko`rsatishga intilish sababli mashhur bo`lishi mumkin.

Uchinchi tashqi ko`rinish tufayli ham shaxs guruhda avtoritet qozonish mumkin. Bu omilga jismoniy kuch ko`rsatkichini ham kiritish mumkin. Bu omilga jismoniy kuch ko`rsatkichini ham kiritish mumkin.

Guruh yoki jamoadagi ba'zi a'zolar shaxsiy munosabatlarda chetda qoladilar. Ular bunday a'zolar shaxsiy o`zaro munosabatlarda chetda qoladilar. Ular bunday aloqalar o`rnatish uchun o`zlariga sherik tanlaydilar. Biroq bu shaxs ish yuzasidan bo`ladigan munosabatlarga kirishadilar, unga berilgan rolni yaxshi bajaradilar. Jamoa bu azoning shaxsiy munosabatlari jamoadagi tashqarida yaxshi o`rnatiladi.

Guruhdagi shaxs yana shunday holatlarda ham bo`lishi mumkin, bunda uni guruhdoshlar do`stlikda shaxsiy munosabatlarda rad etadilar. Guruhdagi yakkalab qo`yish (izolyatsiya) va rad etish sabablari ham turlicha bo`lishi mumkin.

Birinchi dan ba'zi o'quvchilarning sinfdoshlari tomonidan rad etilishi ular bilan bo'ladigan muloqotning qiziqarli emasligi bilan ham tushuntiriladi.

Ikkinchi dan ajralib qolganlik guruhdoshlari bilan aloqa o'rnatmaslikka ham bog'liq bo'lishi mumkin. Guruhlar yoki jamoalarda o'zicha boshchilik rolini oluvchi shaxs farqlanadi. *Psixologiyada bunday shaxs **lider** deyiladi.*

Lider guruhni tashkil etish va boshqarish uchun tayinlanishi yoki belgilanishi mumkin.

Lider quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Guruhda maqsadga vazifalarni bajaradi.
2. Guruh a'zolari o'rtasida javobgarlikni taqsimlash.
3. Muayyan muhitni tashkil etish.
4. Guruh a'zolarining faolligi oshirish.

O'zaro munosabatlar mohasiga bo'yicha liderlarning ikki turi farqlanadi:

**1. Rasmiy lider.**

**2. Norasmiy lider.**

*Rasmiy lider* - liderlikka saylangan yoki tayinlangan lider bo'lib, Ushbu jamoaning faoliyatiga rasman javobgar hisoblanadi.

*Norasmiy lider* - rasmiy liderlik mavqeini egallamaganligiga qaramay, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgach, obro'ga ega bo'lgan lider.

*Liderlik uslublari:*

1. Avtoritart uslub
2. Demokratik uslub
3. Liberal uslub

Demak ayni bir jamoada bir necha lider mavjud bo'lishi mumkin. Agar jamoada liderlar ko'p bo'lsa, bu ijobiy holat. Lekin bunda liderlarning ahloqiy normalari bir-biriga zid kelmasligi lozim. Liderlarning turli-tumanligi jamoa xayitining turlicha bo'lishini ta'minlaydi. Liderlar o'rtasida o'zaro munosabatlar jamoadagi psixologik iqlimning muhim tomonidir. Bundan tashqarii jamoaning psixologik iqlimga jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslaro munosabatlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning 3 xil darajasini ko'rsatish mumkin:

Birinchi daraja - simpatiya yoki antipatiya asosida vujudga keluvchi fzarro munosabatlar.

Ikkinchi daraja - ish yoki o`qish yuzasidan bo`ladigan o`zaro munosabatlar.

Uchinchi daraja - insoniy munosabatlar yoki chuqur ishonchga asoslangan o`zaro munosabatlar.

Jamoadagi normal psixologik iqlimni belgilovchi bevosita ko`rsatkichlar ham mavjud

1. Jamoadagi erkinlik atmosferasi.
2. Muloqot turli shakllarning mavjudligi
3. Umumiy maqsadni tushunish va unga erishish intilish.
4. Fikr-mulohazalarni ochiqchasiga aytish imkoniyatining mavjudligi.
5. Tanqid qilish erkinligi. Nizolarning ham mavjud bo`lishi.
6. Jamoa a'zolari o`rtasida vazifalarning to`g`ri taqsimlanishi
7. Boshliqning norasmiy lider bo`lishi
8. Xodimlar ko`nimsizligining kamligi.

Bulardan tashqari jamoaning psixologik iqlimiga bir qancha omillar ta'sir ko`rsatish mumkin.

O`quvchi talabalar jamoasidagi ma'naviy psixologik iqlimning tashkilotchisi-o`qituvchi guruh razbari hisoblanadi. Har bir guruh rahbari jamoada normal psixologik iqlimni yaratish uchun unga ta'sir etuvchi omillarni ya'shi bilishi zarur. Chunki yaxshi tashkil etilgan jamoada normal psixologik iqlim mavjud bo`lganda guruh a'zolarining o`zlashtirilishi, tartib intizomi saqlashi ham yaxshi yo`lga qo`yiladi.

Guruh va jamoalardagi shaxslaro munosabatlarni o`rganish kuzatish, eksperiment turli xil suhbat metodlaridan foydalaniladi. Shaxslararo munosabatlarni o`rganish metodlaridan yana biri-sotsiometriya metodidir.

Bu metodning mohiyati shundan iboratki inson u yoki bu ko`rsatkich bo`yicha guruh a'zolarini tanlaydi. Qilingan tanlashlar asosida kishining guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o`rni haqidagi xulosa chiqaradi.

Demak sotsiometriya metodi yordamida guruh a'zolari o`rtasidagi simpatiya yoki antisimpatiyani aniqlash mumkin, sotsiometriya metodni

apperativ tarzda o`tkazish, uning natijalarini esa matematik ravishda qayta ishlash va grafik tarzda ifodalash mumkin.

Sotsiometriya tadqiqot metodi sifatida tan olish bilan bir qatorda uning ba'zi kamchiliklarini ham ko`rsatib o`tish zarur.

Asosiy kamchilik shundan iboratki sotsiometriya metodi mavjud munosabatlar tuzilishining sabablarini imkonini bermaydi. Ushning uchun ham sotsiometriyadan olingan ma'lumotlar kuzatish suhbat psixolog-pedagogik eksperiment natijalari bilan to`ldirishi lozim.

Sotsiometriya metodidan guruh jamoa a'zolari o`zaro bir-birlarini yaxshi bilgan holatlardagina yuzasidan bo`ladigan shaxsiy munosabatlardagi haqiqiy o`rnini aniqlash birlamchi guruhlar mavjudligi yoki mavjud emasligini topish, birlamchi guruhlarning paydo bo`li shva tarqab ketish sabablarini aniqlash mumkin.

Sotsiometriya metodning mohiyati shundan iboratki, tekshiriluvchiga birga qilinadigan ishlar yoki guruh a'zolarining ishlarini birgalikda bajarishga hohishlari to`g`risida savollar beriladi. Beriladigan savollar tanlash ko`rsatkichlari deyiladi. Kuchli va kuchsiz ko`rsatkichlar farqlanadi. Kuchlilar chuqur va barqaror munosabatlarni kuchsizlari esa yuzaki va beqaror munosabatlarni aniqlashga imkon yaratadi.

Kuchli va kuchsiz ko`rsatkichlar mazmun jihatdan turlicha bo`lishi mumkin, lekin ulardagi umumiy narsa-natija ya'ni sherik tanlashdir. Sotsiometrik tadqiqotdan olingan ma'lumotlar asosida sotsiogrammalar tuziladi. Agar guruh a'zolarisoni 20 tadan ko`p bo`lsa sotsiometrik matritsa tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek natijalarni grafik ravishda zanjir, uchburchak yoki yulduzcha shaklida ham ifodalash mumkin. Shunday qilib sotsiometriya metodi ob'ektiv va aniq ma'lumotlar, ya'ni shaxsning guru hyoki jamoadagi real holatini aks ettiruvchi ma'lumotlar olishga imkon beradi va amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin.

#### **4-mavzu: SHAXSLARARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA SHAXSNING RIVOJLANISHI**

«**Shaxs**» tushunchasi psixologiyada eng kup qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari Bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligiva aynan jamiyat Bilan bo'lgan aloqAsi masalasini chetlab o'tolmagan.

**Shaxs** - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir.shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob'ektni), so'ngra shu ta'sirlarning sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Shaxs ijtimoiy hulqiga turli tashqi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar majmui ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy va boshqalar.

Shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar oila, mahalla, san'at, madaniyat va boshqalar bilan bog'liq bo'ladi.bu ta'sirlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shaxs-jamiyat a'zosi sifatida turli xil munosabatlar, avvalo, moddiy boyliklarni ishlab chikarish va iste'mol qilish jarayonida vujudga keluvchi munosabatlar sohasidagi ta'sirida bo'ladi. Shaxsning psixologiyasi uning ozodligi, eziluvchi ekanligiga, siyosiy huquqlarga ega yoki emasligiga ijtimoiy hayot masalalarini muhokama qilish yoki hukmron sinfning irodasini bajaruvchi ekanligiga bog'liq

Shaxs shuningdek g'oyaviy munosabatlar ta'sirida ham bo'ladi. Jamiyat haqidagi g'oyalar tizimi shaxsning psixologiyasi, uning dunyoqarashi, ijtimoiy ustanovkalarini shakllantiradi.

**Ijtimoiy ustanovkalar** - sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va Duneqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizmdir. Bu-shaxsning atrof-muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qili shva ular Bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi Dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.



Ijtimoiy fanlarni o`zlashtirishda shaxsga ijtimoiy taraqqiyotda o`z o`rnini anglashga yordam beradi. Jamiyat maktabdagi ta'lim va tarbiya, radio, televideniya va boshqa ommaviy axborot vositalari yordamida shaxsga g`oyaviy ta'sir o`tkazadi.

Shaxsning ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi-uning doimo insonlar davrasida, ular bilar o`zaro ta'sir doirasida bo`lishini anglatadi. Bu shaxsning eng etakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Muloqot jarayonida kishilar o`zaro bir-birlariga ta'sir etadilar. Va uning natijasida jamiyatga, insonlarga shaxsiy sifatlarga nisbatan qarashlardan psixologiyasi ustanovka hamda boshqa munosabatlarda umumiylik tarkib topadi.

Shaxsning muloqot doirasiga qanchalik keng bo`lsa uning, hayotining turli sohalari bilan aloqasi shunchalik turli-tuman bo`ladi, shaxs ijtimoiy munosabatlar dunyosi qanchalik chuqurroq kira olsa uning ma'naviy dunyosi ham boy bo`la boradi. Shaxsning poztsiyasi-bu uning munosabatlari tizimidir. Shaxsning psixik xususiyatlari insoning ijtimoiy tajribasi, uning ijtimoiy ustanovkalarini belgilaydi. Shaxsning shakllanishini u yashaydigan jamiyat sharoitlari u oladigan ta'lim tarbiya belgilashadi.

Demak inson shaxs sifatida ijtimoiy hal qiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tajribaning ko`rsatishicha insoniyat jamiyatdan tashqarii go`dak haqiqiy taraqqiyo etgan inson shaxs bo`la olmaydi. Har bir bola yashaydigan ijtimoiy muhit bir emas balki bir necha qavatdan (zonadan) iborat. Eng yaqin va birinchi qavat oilaviy muhitdir. Oilaga qaraganda kengroq qavatni bolaning o`rtoqlari, tarbiyachilari muammolari tashkil qiladi. Va nihoyat eng keng qavat-ijtimoiy muhit hisoblanadi. Undan tashqarii bevosita hatti-harakat namunalari, alohida kishilarning mulohazalari orqali emas balki kitob va gazeta, radio, kino, televidenie, jamiyatda o`rnatilgan qonun-qoida, odatlar, ahloq talablari, ma'naviyat, milliy qadriyatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq agar bolaning shaxsiy faolligi mavjud bo`lmasa, muhit uning taraqqiyotiga ta'sir ko`rsata olmaydi. Faqat o`zining shaxsiy faolligini ko`rsatgandagina bola atrof-muhitning ta'sirini his qilishi, shundagina uning rasmiy xususiyatlari namoyon bo`lishi mumkin

Shaxs, uning dunyoni bilishi, o`zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni anglashi, tushunish va o`zaro munosabatlar jarayonida o`zidagi takrorlanmas individuallikni namoyon qilish hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog`liq ayrim jihatlarni tahlil qilish bizga umumiy ravishda shaxs-jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir,

degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya'ni, u tug`ilgan onidan boshlab o`ziga o`xshash insonlar qurshovida bo`ladi va uning butun ruhiy imkoniyatlari ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo`ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti, ya'ni tug`ilgan onidan to umrining oxirigacha bo`lgan taraqqiyoti davriga e'tibor beradigan bo`lsak, o`ziga o`xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko`rinishlarining faol ob'ekti va sub'ektiga aylanadi. Shu nuqtai-nazardan, har birimizning jamiyatdagi o`rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo`lgani, jamiyatga qo`shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi. Ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya-inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot faoliyat jarayonida uni faol tarzda o`zlashtirish jarayonidir. Demak, inson-faol mavjudot. Uning tarbiyaviy ta'sirlari muhit ta'sirining passiv ob'ekti emas shuning uchun hayotning tashqi sharoitlari tashqi ta'sirlari inson shaxsi bevosita, balki uning muxit bilan o`zaro ta'siri jarayoni orqali uning shu muhitdagi faoliyati yordamida belgilaydilar.

Shu tufayli muxit tarbiyaviy ta'sir haqida gapirganda uni insonning tashqi muxit bilan faol ta'sir jarayoni tarbiyalanuvchining faol o`zaro aloqasi sifatida tushunish kerak.

Insonning individ sifatidagi hamda ijtimoiy munosabatlar sub'ekti ya'ni ob'ektiv dunyoni faol aks ettiruvchi miya xususiyati o`rtasida uzviy bog`lanish mavjud. Individ psixikasi ega. Shu bilan bir qatorda individ shaxs sifatida ya'ni o`z tabiatiga ko`ra ijtimoiy shaxslaro munosabatlar sub'ekt ham hisoblanadi. Shunday qilib shaxs va psixikasi o`rtasi uzviy aloqa mavjud, ya'ni ular bir-birlari bilan chambarchas bog`langan. Ammo bu sub'ekt shaxsi bilan uning psixikasi aynan bir narsa degani emas M: yoqimli (attrkatsiya)- bu inson shaxsi xarakteristikasidir. Biroq bu xususiyat inson psixikasining xarakteristikasi sifatida qarshi mumkin emas. Chunki bu inson boshqalar uchun yoqimli va shu kishilar psixikasida ongli yoki ongsiz ravishda yoqimli insonga nisbatan emotsional munosabat, muayyan ustanovka shaklanadi. Insonning yoqimligi unda ko`rsatilgan har qanday tahlil ham nima uchun ba'szi jamoalarda ushbu sub'ekti yoqimli boshqalarida yoqimsiz shaxs sifatida namoyon bo`lishini tushuntirib bera olmaydi. Bu savolga javob berish uchun ushbu jamoalar ijtimoiy-psixologik taxlil qilishi zarur. Shunday taxlil natijasida shaxsni tushunish uchun yaratiladi. Demak guruhning

rivojlanish darajasini aniqlamasdan turib shaxsning yoqimlik yoki yoqimsizligi sabablarini aniqlash mumkin emas.

Shaxsning rivojlanish jarayoni insonning individualligi xarakterlovchi emotsional va irodaviy bilish jarayonlarining rivojlanishi sifatida qaramasligi kerak. Shaxs guruhda ya'ni manna shu guruhda o`rnatiladigan o`zaro munosabatlar va muloqot ta'sirida rivojlanadi. Demak, guruhning taraqqiyoti shaxsning guruhda rivojlanish omili sifatida namoyon bo`ladi. Individ o`ziga xos ehtiyoj, ya'ni individual xususiyatlar shaxs bo`lish ehtiyoji qondirilishini ta'minlaydi va turli ishlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Ushbu rivojlanish darajasiga ega bo`lgan guruh jamoalar katta ahamiyatga ega. Shaxs rivojlanishini Yangi ijtimoiy muhitga qo`shilish va u bilan birlashish sifatida tasavvur qilish mumkin. Bu muhitning stabilligi turlicha bo`lishi mumkin. Shartli ravishda bu muhitni doimiy o`zgarmas deb qaratiladi (masalan, maktabning birinchi sinfi, ishlab chiqarish brigadasi, har bir qismi va x.) nisbatan barqaror bo`lgan muhitda shaxsning rivojlanishi 3 ta bosqichini bosib o`tadi. Bular - adaptatsiya, individualizatsiya va integratsiya bosqichlaridir.

### **5-mavzu: IJTIMOY PSIXOLOGIYADA MULOQOT MUAMMOSI**

**Muloqot** - psixologiya fanining eng muhim tushunchalaridan biridir. Ijtimoiy-psixologiyada muloqot o`rinlardan birini egallaydi. Muloqot «faoliyat» tushunchasi bilan uzviy bog`langan. Muloqot faoliyat turlaridan biri sifatida qaraladi. Muloqot birgalikdagi faoliyatga bo`lgan ehtiyojlar tufayli tug`iluvchi jarayondir. A.V.Petrovskiy ta'biri bilan aytganda , muloqot birgalikdagi faoliyat ehtiyojlari natijasida vujudga keluvchi, kishilar o`rtasida aloqa o`rnatish va rivojlantirishning ko`p qirrali jarayonidir. Biroq, muloqot faqat birgalikdagi faoliyatga ehtiyoj tufayli tug`uluvchi jarayon emas, balki u shaxslaaro o`zaro ta'sir jarayoni ham. Muloqotning tuzilishini kognitiv-axborot, boshqaruvchanlik, affektiv empatiya, ijtimoiy-pertseptiv tomonlar tashkil etadi.

Har qanday faoliyat ham ijtimoiy tabiatga ega va kishilar o`rtasida turlicha taqsimlangan. Shuning uchun faoliyatni tashkil etish uchun kishilar o`rtasidagi muloqotni talab qiladi. Aynan kattalar bilan bo`ladigan muloqotgina bola ijtimoiy-tarixiy tarixini o`zlashtiradi. Muloqot kishilarning har qanday o`zaro ta'siri emas, balki shunday o`zaro ta'sirki, bu jarayonda uning har bir qatnashchisi faol bo`lib,

sub'ekt sifatida, shaxs sifatida namoyon bo`ladi. Muloqot insonning o`ziga xos ehtiyojini, boshqa zaruriyatlar oziq-ovqatga, issiqlika, ta'sirotlarga faollikka, xavfsizlikka intilish kabi ehtiyojlardan farqlanuvchi ehtiyojni qondirishga qaratilgan. Muloqotga ehtiyoj o`zini va boshqa kishilarni shaxs sifatida anglashga, aynan boshqa kishilarga va o`z-o`ziga baho berishga qaratilishida ifodalanadi. Shuning uchun bunda oxirgi psixologik maxsulot-boshqa kishining va o`zining obrazi bo`lib, shu tufayli inson faoliyatini boshqaradi.

Muloqot bolaning dunyoga kelishi bilan darhol vujudga kelmaydi. Balki asta-sekin tarkib topa borib, bola 2 oylik bo`lganida namoyon bo`ladi. Muloqot normal nerv sistemasiga ega bo`lgan barcha bolalarda normal tarbiya sharoitlarida mavjud bo`ladi. Go`daklik davri muloqot uchun tayyorgarlik bosqichi bo`lib, bu davr davomida bola kattalarni ajratishga o`rganadi. Diqqatni kata kishiga qarata olish tarkib topayotgan muloqotning belgisi bo`lib xizmat qiladi. Demak, muloqot maqsadga qaratilgan tarbiya asosida rivojlantirilishi zarur.

Shunday qilib, muloqot kishilar o`rtasidagi o`zaro ta'sirning muhim shakli bo`lib hisoblanadi. Muloqot bu kishilar o`rtasidagi aloqa. bu aloqa natijasida bir kishining boshqa bir kishiga ta'sir etishi amalga oshiriladi. Muloqot yordamida kishilar turli xil faoliyatni tashkil etadilar, axborot bilan almashinadilar, o`zaro bir-birini tushunishga erishadilar.

Birgalikdagi faoliyat muloqot bo`lishini talab etadi. Aynan birgalikdagi faoliyatda inson boshqa kishilar bilan o`zaro ta'sirga kirishadi, ular bilan turli-tuman aloqalar o`rnatadi, zarur natijaga erishish uchun birgalikda xarakteristik harakatlar qiladi. Bu erda muloqot faoliyatining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo`ladi. Faoliyatning barcha turlarida muloqot uni rejeleshtirishini amalga oshirish va nazorat qilishni ta'minlaydi. Muloqot shaxsning rivojlanishida kata ahamiyatga ega. Muloqotsiz shaxsning tarkib topishi, shakllanishi mumkin emas. Aynan muloqot jarayonida tajriba o`zlashtiriladi, bilimlar to`planadi, amaliy ko`nikma va malakalar shakllanadi, e'tiqod va qarashlarga erishiladi. Faqat muloqot jarayonlaridagina ma'naviy ehtiyojlar, ahloqiy, siyosiy va estetik hislar tarkib topadi, xarakter shakllanadi. Insoniy muloqot va jamiyatning taraqqiyoti murakkab jarayondir. Muloqot imkoniyatlari jamiyat rivojlanishi bilan kengayib boradi. Shu bilan birga ma'lum jamiyatning taraqqiyoti kishilar o`rtasida bo`ladigan muloqot, aloqaga yoki boshqa jamiyatlar bilan bo`ladigan munosabatlarga bog`liqdir.

Muloqotning maqsadi va uning qay darajada amalga oshirilishiga ko`ra samaradorligi haqida fikr bildirish mumkin.

Muomala kirishuvchi tomonlarning o`zaro bir-birlarini tushunishga olib keluvchi yo`l yoki ma'arom o`z navbatida o`sha shaxslarning o`zaro bir-birlarini mavqe bo`yicha bilishni ta'minlaydi. Muloqotning psixologik tizimidan shu narsa ma'lumki, uning uch asosiy qismi, ya'ni muomala sub'ektlarining o`zaro bir-birlari bilan axborot, hissiy kechinmalar va fikr almashinuvi ta'minlovchi kommunikativ, o`zaro bir-birlarining hulq-atvorlariga ta'sirlarini belgilovchi interaktiv va bir-birlarini to`g`riroq, Aniqroq idrok qilish va baholashlarni ta'minlovchi pertseptiv tomoni mavjud. Ushbu tizimning har bir tomon muomalaning zaruriy va muhim tarkiblari hisoblanib, uning uchinchi bo`lagi shaxslararo ta'sir o`tkazish uchun juda muhim muomalaga kirishuvchi shaxslar bir-birlarini yaxshi tushunishlari uchun, avvalo suhbadoshning yuzi, hissiy kechinmalarini idrok qilgan holda fikran uning mavqeida tura bilishi, uning o`rnida his qilib o`zida hukm surayotgan his tuyg`ular doirasida uning holatiga intilish (identifikatsiya), qolaversa, bu jarayonda individual va ijtimoiy ongda mavjud bo`lgan mutloq stereotin, ongda o`rnashib qolgan tasavvurlarda foydalanishi (stereotinizatsiya) ushbu jarayon to`g`ri kechishini ta'minlab turadi.

Muloqot jarayonining samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omillar ichida shaxsning muloqot maromini egallash ko`rsatkichi muhim o`rin tutadi. Bu sifat muloqot savodsizligiga zid bo`lib oxirgi hislat quyidagi omillarga bog`liq.

1. O`zgalar mavqeida tura olmaslik, ularning hissiy kechinmalari, tuyg`ulari va munosabatlariga befarqlik;

2. O`z his-tuyg`ulari va munosabatlarni boshqara olmasligi, o`ziga-o`zi ma'suliyatning yo`qligi, o`z-o`zini tahlil qilish imkonining zaifligi;

3. Suhbatda har bir inson uchun bir qarashda tabiiy hisoblangan nutq qobiliyatning yo`qligi ya'ni fikr-mulohazalardagi mantiq va uzviylikning mavjud emasligi;

4. Eshitish qobiliyatining kuchsizligi, ya'ni birovga murojaat ma'nosida gapirish qanchalik buyuk fazilat va ma'suliyatli faoliyat bo`lsa, o`zgalarni suhbatdoshni tinglash ham shaxsdan qator sifatlarni talab qiladiki, tinglay olish o`quvi ham suhbatni o`ziga og`dirishning muhim omilidir.

Bu omillarning kuchiga e'tiborsizlik, o`zgalar mavqeida turaolmaslik momalada sub'ektiv hodisani keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham to`g`ri yo`lga qo`yilgan samarali muloqot va uni

ta'minlovchi vositalar ikki asosiy kamchilikni bartaraf etishga xizmat qiladi:

- har bir shaxs tafakkurning muqobil bo'lishi mumkinligini anglashi, ya'ni suhbatdosh avval boshdan o'zgalarga ham o'zining fikriga qarama-qarshi fikr bo'lishi mumkinligini tushunishi va bu narsa bilan hisoblanishi zarurligi;

- o'z fikrlari va harakatlarning motivlari ularning asl sabablarini anglash imkoniyati: ya'ni har bir shaxsda o'z shaxsiy tajribasi, hayotda sub'ektiv munosabatlari oqibatida «Ego»-ehtiyotlar majmui shakllanib boradiki, u boshqalardagi aynan shunday ehtiyojlardan qarama-qarshi yoki qisman ziddiyatli bo'lishi mumkin.

Muomalaning samaradorligi va uning omillari to'g'risida gapriganda uning strategiyasi va taktikasi tushunchalariga biroz izoh berish joiz. Muomala strategiyasi deganda uning qanday shaklda o'tishi tushuniladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda uning quyidagi shakllari farqlanadi: diolog yoki monolog; ochiq yoki intim (sirli yashirin); rolli yoki shaxsiy norasmiy kabilar.

Muomala texnikasi deganda, uning samarasini ta'minlovchi psixologik omillar, vositalar, usullar tushuniladi. Bu shaxs yoki guruhning kommunikativ malakalari yoki ko'nikmalari yig'indisidan iborat bo'lib, eng avvalo nutq qobiliyati yoki eshitish uquvi ularning jozibali va ta'sirchan chiqishida qo'llanadigan barcha hissiy emotsional va psixologik xarakterologik uslublari kiradi. Bundan tashqari muloqot texnikasi deganda ushbu jarayonda bevosita ishtirok etayotgan yoki aniqroq qilib aytganda qo'llaniladigan nutqiy verbal yoki aniqroq qilib nazarda tutiladi. Ma'lumki, odamlar o'zaro muloqotga kirishganda eng samarali va tabiiy so'zlashish vositasi bo'lmish nutqdan foydalanadilar, uning ta'sirchanligi va kuchi tabiiy o'sha so'zlovchilarning malakalariga, tajribasiga va omilkorona foydalana olishlariga bog'liq. O'zbek tili shu qadar jozibali, go'zal va boyki, notiqlik mahorati uning barcha imkoniyatlaridan o'z o'rnida va mohirlik bilan foydalanishiga bog'liq. Lekin ana shu muloqot o'z navbatida uni hissiy jihatdan tiliga bog'liq, lekin ana shu nutqsiz-noverbal vositalari bilan boyitiladiki, unga o'sha suhbatdoshlarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylanishlaridan tortib, to tovushlar, intonnatsiyalar, to'xtalishlar, ohanglar va emotsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kiradi. Muloqot so'zlash san'ati bilan bir qatorda eshitish uquvi va texnikasi ham kata ahamiyatga ega, zero eshitish yoki tinglashning ham o'ziga xos nozik tomonlari mavjud. Avvalo eshitish yoki tinglash gapirish uchun mavjud yoki tinglash esa

tushunish uchun darkor. Bu ikki holatda tinglovchining yuz ifodasidan tortib, to suhbatdoshini fikr almashishi uchun tinglaganda uning diqqati shu darajada tarang bo`ladiki, natijada u to biror luqma yoki aniq bir fikrni tugatmaguncha, uni tinglayveradi. Ikkinchi hola axborotni tushunish uchun ishlatiladi, bunda tinglovchining suhbatdoshga nisbatan mavqei oldingisidan ancha sust kechadi.

Tinglash texnikasining ikki bosqichi farqlanadi:

- 1) Qo`llab-quvvatlash bosqichi;
- 2) Sharhlash bosqichi.

Birinchidan mohiyati asosan suhbatdoshga tashabbusni berish va uning fikrlarini oxirigacha bayon etishga imkoniyat berish bo`lib, bunda bir qancha vositalar qo`llaniladi. Bular-«aks-sado»-har bir jumla yoki fikr oxirida uning oxirgi so`zlarini qaytarib turish: ma'qullovchi yoki e'tiroz bildiruvchi luqmalar qaytariluvchi so`zlar bilan suhbatdosh fikrlarini hissiy ma'qullash. Masalan, «qarang-a», «qoyil», «yo`g`-e» kabilar; «chorlash va quvvatlash» vositasi ham ayrim luqmalardan iborat bo`ladi, masalan, «keyin nima bo`ladi», «yana-chi», «yashang» singarilar; «aniqlik kirituvchi savollar», masalan, «nima demoqchisiz» yoki «aniq maqsadingiz nima ekan, o`zi» va xokazo; «qo`shimcha luqmalar»-bunda gapning mazmunidan kelib chiqib ayrim aniqliklar kiritiladi.

Sharhlash-bu so`z mavqei va munosabatini to`laroq bayon etishga harakat qiladi. Bunda tinglovchi tanqidiy mulohaza ham bildirishi mumkin, yoki aniq fikrni ma'qullaydi, e'tiroz bildiradi. Bundan tashqarii, tinglash jarayonida suhbatdoshning fikrlarini tahlil qilishi, maslahat bildirishi, suhbatdosh fikrlarini o`z so`zlari bilan qaytarishga yoki aytganlarining yo`nalishini o`zlashtirish maqsadida boshqa predmetga ko`chirishi yoki hazilga aylantirishi mumkin. Bular suhbaning jonli, mazmunli, samarali bo`lishini ta'minlaydi. Shunday qilib, muloqt uch xil yo`nalishda tushunilishi mumkin:

1. Muloqot- inson faoliyatining mustaqil turi sifatida;
2. Muloqot-inson faoliyati boshqa turlarining atributi sifatida;
3. Muloqt-sub'ektlarning o`zaro ta'siri sifatida.

Muloqot ko`p jihatdan muloqotning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini samarali qo`llanilishiga bog`liq. Muloqotning bu vaziyatlarini psixologiya yordamida boshqarishga o`rganishdir. Muloqotning muhim ijtimoiy psixologik mexanizmlari ishontirish, taqlid, uqtirish.

**Ishontirish** - u yoki bu mulohaza yoki xulosani mantiqiy asoslab berish jarayonidir. Ishontirish ham suhbat yoki tinglovchilar ongini

shunday o`zgartirishni nazarda tutadiki, u mazkur nuqtai-nazardan himoya etish va shunga muvofiq harakat qilishga tayyorgarlik vujudga keltiradi. Ishontirish- shaxs yoki guruhga ta'sir etish usuli bo`lib, u shaxsning ham aqliy ham hissiy sohalariga dahldor.

Taqlid qilish psixik ta'sirning bir turi sifatida asosan individ tomonidan hulq-atvor, hatti-harakat, yurish-turishning muayyan tashqi xususiyatlarini takrorlashga qaratilgandir.

Bir odamning boshqa odamga yoki odamlar guruhiga so`zlar va bu so`zlarda ifodalangan fikrlar hamda irodani notanqidiy idrok etishga qaratilgan psixik ta'sir-uqtirishdir. Uqtirishning mohiyati shundaki, tinglovchining gapirayotganda to`la va so`zsiz ishonchi mavjud, gapirayotgan odamning so`zlari tinglovchida gapirayotgan odam nazarda tutgan tasavvurlar, obrazlar va his-tuyg`ular uyg`otadi, uyg`otilgan tasavvurlarning to`la ravshanligi va so`zligi shunday harakatlar qilish zaruratini keltirib chiqaradiki, bu tasavvurlar boshqa shaxs vositasida emas, balki tinglovchining o`zida bevosita kuzatish yoki bilib olishi orqali qilinadi. Uqtirishga berilish- odamga xos bo`lgan psixik xususiyatlardan biri, odamlarning muloqotdagi o`zaro ta'sir ko`rsatish jarayonlaridan biri sifatida uqtirish ixtiyoriy va ixtiyorsiz, bevosita, bilvosita bo`lishi mumkin.

## **6-mavzu: OILAVIY O`ZARO MUNOSABATLAR PSXOLOGIIYASI**

Shaxsning taraqqiyot dastavval oilada amalga oshadi. Oila inson shaxsi asosiy xususiyatlarini shakllantiruvchi eng muhim hisoblanadi.

Oil - bu borada o`zaro yaqin odamlarning ma'naviy jihatdan birligi hamda o`zaro tushunishi garovi, inson hayoti mazmunining muhim birligi tomoni bo`lgan ijobiy emotsional intim munosabatlar manbai.

Oil a'zolarining faoliyati turli tuman o`zaro munosabatlar va o`zaro ta'sirdan iborat bo`lib, ular oilaviy hayotning turli sohalarini-xujalik, ahloqiy, intim tomonlarini o`z ichiga oladi hamda oiladagi majburiyatlarni taqsimlanishini talab qiladi.

Oiladagi birgalikda faoliyat uning a'zolari, kattalar va bolalar o`zaro munosabatlarni belgilaydi. Agar birgalikda faoliyat mavjud bo`lmasa, yoki kuchsiz bo`lsa, bu holda oilaviy munosabatlarda muhim deformatsiya (buzilish) vujudga keladi. Bu o`z navbatida bola shaxsi taraqqiyotiga ta'sir etadi.



«Oila» tushunchasi shaxs uchun qanday mazmunga ega. Bola uchun oila-bu uning ota-onasi, aka-ukalari, buvi va buvalari, qarindosh-urugʻlari boʻlib, ular bola tarbiyasida muayyan darajada ishtirok etadilar. Yoshlar uchun, ya'ni endi oila qurganlar uchun oila-bu avvalom bor rafiiqAsi, bolalari, ota-onasi, qarindoshlari.

Oila undagi er-xotin munosabatlari masalasi bir qancha diniy, ilmiy, ommabop asarlarda etarlicha keng batafsil bayon qilingan. M: «Avesto»da ham bu masalalar oʻz ifodasini topgan. Unda ayolga munosabat, ayolning roli vazifalari, nikoh shartnomasi, huquqiy, ijodiy, ijtimoiy, aqliy tomondan er -xotinlarning teng huquqligi, oilaning mustahkamligi ta'sir etuvchi omillar: ajralishlarga munosabat, rashk, erkak va ayolning manfaatlari kabi masalalarga alohida toʻxtab oʻtilgan. «Avesto» da koʻrsatilishicha oilada ota etakchilik vazifasini oʻtaydi. Diqqatga sazovor jihat shundan iboratki bunda ayolning haq-huquqlarini himoya qilish oʻsha davrda ham qonun darajasida koʻrilgan.

Oila toʻgʻrisidagi toʻliq tasavvurga ega boʻlish uchun unda oʻrnatiladigan oʻzaro munosabatlarni hisobga olish zarur. Bular:

a) er-xotin;

b) farzand ota-ona;

v) ota-ona-farzand tipidagi oʻzaro munosabatlar boʻlib, oilaning ijtimoiy-psixologik birligini tashkl etadi. Manna shu oʻzaro munosabatlarning barchasi mavjud boʻlgan oila toʻlqonli oila deb hisoblanish mumkin;

g) farzand-farzand.

Oilaning turli mezonlarga koʻra bir qancha turlarini farqlash mumkin.

1. Toʻliqlikka koʻra; a) toʻliq, b) notoʻliq, v) qayta tuzilgan oilalar.

2. Boʻgʻinlarga koʻra; a) nukleor (ota-ona va bolalar) b) koʻp boʻgʻinli (ikki va undan ortiq avlod oilalar birga yashasa) oilalar.

3. Farzandlar soniga koʻra;

a) farzandsiz; b) bir bola; v) ikki bola; g) 3-4 bola d)5 va undan undan ortiq bolali oilalar.

4. Er xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga koʻra:

a) ishchilar;

b) dehqonlar;

v) xizmatchilar;

g) ziyolilar oilasi;

d) tadbirkorlar;

e) aralsha turdagi oila

Regional jihatlariga ko`ra:

a) shahar, b) qishloq, v) aralash tipdagi oila

oilada er-xotin orasidagi munosabatlarga ko`ra;

a) avtoritar b) demokratik v) liberal g) aralash tipdagi oila;

Bulardan tashqari yoshiga ko`ra, nikohdan qoniqqanlik darajasiga ko`ra, millatiga ko`ra, er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko`ra va boshqa ko`rsatkichlar bo`yicha oila turlari farqlanadi.

Oila jamiyatning bir bo`lagi sifatida odamlar orasidagi munosabatlarning boshqaruvchisi bo`lib hisoblanadi. Jamiyatda mavjud bo`lgan ijtimoiy normalar va madaniyat namunalari er-xotin o`rtasidagi munosabatlar qanday bo`lishi kerak, ota yoki ona bilan farzandlar, o`g`il yoki qiz bilan qarii yoshdagi ota-onalar o`rtasidagi munosabatlar qanday bo`lishi kerak, ota yoki ona bilan farzandlar, o`g`il yoki qiz bilan qarii yoshdagi ota-onalar o`rtasidagi munosabatlar uchun etalon bo`lib xizmat qiladi.

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funktsiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy tizimda oilaning o`rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy vazifalarini bajaradi; iqtisodiy, reproduktiv felitsiotologik va boshqalar.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon oilasida emotsional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda, hatto sof moddiy tabiatga ega bo`lgan vazifalarda ham hissiylik ko`proq rivojlanib bormoqda, hissiy emotsional aloqalarning ahamiyati shahar oilalarida kuchliroq ekanligi anglanmoqda. Qishloq oilalari esa shahar oilalariga qaraganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi bo`g`inligini ishlab chiqaruvchilik vazifasini ko`proq saqlab qolmoqda.

Oilaning iqtisodiy funktsiyasi uning asosiy vazifalaridan biridir. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, mablag` yig`ish, rejali ro`zg`or yuritish er-xotinning kata tajriba, malakaga ega bo`lishiga bog`liq. Shuningdek oilada o`sayotgan farzand ham mana shu malaka va ko`nikmalarga ega bo`lib borishi zarurligini unutmagan holda o`g`il-qizga iqtisodiy masalalarni hal etishni o`rgata borishi lozim.

Oilaning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) vazifasining asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iboratdir.

Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo`lgan davrdan boshlab tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlashdan ham iboratdir.

Bolalarning aqliy, jismoniy, ahloqiy estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarning tiklanishi va milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz bu borada kata ahamiyatga ega, famiyatning muhim vazifasi darajasiga kiradi. Oilaning kommunikativ vazifasi oila a'zolarining o`zaro muloqot va o`zaro tushunishga bo`lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. O`zbek oilasining o`ziga xos xususiyati; ko`p avlodlilik, ko`p farzandlilik kabilar bunday oilalar a'zolari o`rtasida muloqotni to`laroq amalga oshishiga asos bo`ladi, ularning o`zaro muloqotga bo`lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o`ynaydi.

Oilaning rekreativ funktsiyasi-o`zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko`rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolarining dam olishini tashkil etish demakdir.

Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funktsiyalaridan biri uning felitsiotologik vazifasidir. Shaxsiy faravonlikka erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko`p jihatdan hali omil bo`lib bormoqda.

Oilaning regulyativ vazifasi oila a'zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro`ni amalga oshirishni ifodalaydi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo`llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Oilaning redaktsiya vazifasi-oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini Yana qayta tiklash demakdir.

Demak, oila jamiyatning bir bo`lagi asosiy yacheykasidir. Shuning uchun oilaning o`z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga shu bilan birga jamiyatni sog`lomlashtirish uchun oilaning o`z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga shu bilan birga jamiyatni sog`lomlashtirish uchun, eng avvalo, munosabatlarni yo`lga qo`yish, oilaning faqat ichki muammolarinigina emas, balki umumijtimoiy muammolarni ham hal qilishga hissa qo`shishini ta'minlash zarur.

## **7-mavzu: FAOL IJTIMOY PSIXOLOGIK METODLARNING TURLARI VA XUSUSIYATLARI**

Ijtimoiy psixologiyada faol ijtimoiy psixologik tayyorlov metodlari deganda, avvalo shaxs yoki guruhni samarali muloqot malakalariga o'rgatish va ulardagi kommunikativ bilimdonlikni oshirish usullari tushuniladi. Demak, inson o'z hayotida shaxsiy tajriba, ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni orttirib borishi jarayonida hosil bo'ladigan stixiyali, bevosita shakllanadigan ijtimoiy bilimdonlik yoki kommunikativ savodxonlikdan farqi o'laroq, fanda Ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish, shaxs va yaxlit gurux faoliyatiga taalluqli ijtimoiy fazilatlarni tezlashtirish uchun qo'llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ba'zi adabiyotlarda ularni qisqacha qilib, ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb atashadi. «Trening» tushunchasi inglizcha «o'rgatish», «Mashq» degan ma'noni anglatib, ijtimoiy psixologik trening-bu turli ijtimoiy faoliyat sohaslariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo'lib, bunda asosiy e'tibor shaxs yoki yaxlit guruxning muloqot yoki kommunikativ faoliyati sohasidagi bilimdonlik darajasini maqsadga muvofiq tarzda oshirish jarayonini aks ettirishdir. Masalan, ko'plab oliygohlarda ijtimoiy faoliyatning u yoki bu sohalari uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Lekin ularning kelgusi faoliyatlarida odamlar bilan murakkab munosabatlarga o'rgatish, o'zini va o'zga shaxslar hamda yaxlit ijtimoiy guruxlar faoliyatlarini boshqarishga mashqlantirish va zarur ijtimoiy malakalarni orttirishga qaratilgan tadbirlar va tayyorgarlik majmuasi treningdir. Ya'ni u shaxsni ijtimoiy muloqotga oldindan maqsadli tarzda tayyorlash demakdir.

Maxsus tarzda uyushtirilgan treningda esa alohida vaziyatlar va har bir o'yin ishtirokchisining shaxsiy ehtiyojlari, ularda individual shakllanishi zarur bo'lgan sifatlar katta rol o'ynaydi va shaxs ataylab bu ijtimoiy psixologik vaziyatga o'zgalar tomonidan qo'yiladi. Trening metodlarining asosiy vazifalari quyidagilar bilan izohlanadi:

- 1) shaxsning ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish;
- 2) muloqot (muomala) faoliyatida namoyon bo'ladigan yaqqol bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni hosil qilish;
- 3) samarali muloqotda namoyon bo'ladigan zarur sifatlar, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, noadekvatlarini tuzatish (korrektsiya);
- 4) o'zgalar nutqi, reaksiyalarini aniq va tinglash, mimika va harakatalr mohiyatini to'g'ri talqin eti shva tushunish;
- 5) tinglovchilar va o'yin ishtirokchilarining ehtiyojlari va qiziqishlariga qarshi bormaslik;

6) rejalashtirish qobiliyatining bo`lishi, bunda oldinda kutilayotgan jarayonning barcha muhim va nomuhim jihatlarini oldindan taxminan bo`lsa ham, tasavvur qilib, aniq reja tuza olish;

7) o`ziga ishonch, e'tiqodning mavjudligi, real tafakkur va irodaning bo`lishi.

Boshlovchi trenerning asosiy vazifalari ham uning shaxsiga qo`yiladigan talablardan bevosita kelib chiqadi. Ya'ni, u avvalo ta'lim dasturiga ega bo`lishi kerak. Dasturga mos stsenariylar tanlay bilishi, ularni kerak bo`lsa, har bir aniq holat va vaziyatga moslashtirishi, mashg`ulotlarni tashkil qilishda ham Ushbu holatlarga e'tibor qaratishi shart. Qatnashchilarning yoshi, jinsi, kasbiy malakalari, madaniyati darajasi va ehtiyojlariga mos ravishda dastur va stsenariylarga o`z vaqtida tuzatishlar kiritish qobiliyatiga ega bo`lishi, mashg`ulotlar shakli, vaqti, joyini ham yuqoridagi omillarga mos ravishda tanlash ularning samaradorligiga bevosita ta'sir ko`rsatadi. Imkoniyat boricha, tinglovchilarni Mashg`ulotlar boshlanishidan avval mavzu bo`yicha yozma matnlar bilan ta'minlashi va ma'ruzalarni iloji boricha, o`zi o`zida, amaliy mashg`ulotlarga ham begonalarini jalb qilmagani ma'qul. Chunki bu erda «nimaga o`rgatish» va «qanday o`rgatish» degan savollarga javobgar shaxs shaxs bir kishi bo`lsa, harakatlarda uyg`unlik bo`lishi mumkin.

Ijtimoiy psixologik treningda boshlovchi roliga duch kelgan shaxslarni jalb etib bo`lmaydi. Chunki Mashg`ulotlarni o`tkazuvchi maxsus tanlovlarda ishtirok etgan bo`lishi va unda uning kommunikativ mahorati, o`z-o`zini nazorat qila olish qobiliyati, bosiqqligi, hissiyotlarning muqoblligi, ularga ma'lum ma'noda turgunlik xos bo`lishi shart. Tanlovni umuman xolis ekspertlar o`tkazib, trenerlarni tayyorlash kurslar ham nisbatan uzoq muddatga mo`ljallangan saboq bo`ladi.

IPTda samarali muloqotga erishish uchun quyidagi omillar hisobga olinishi maqsadga muvofiq:

A) maqsadning aniq bo`lishi, uning boshlovchi va ishtirokchilar tomonidan bir xil idrok qilinishi va tushunishi. Demak, bu o`rinda guruhiy va individual maqsadlar o`rtasidagi moslik va kelishuvning mavjudligi e'tibor qaratilishi shart;

Ilmiy adabiyotda faol ijtimoiy psixologik tayyorlov metodlari shartli ravishda uch guruhga bo`linadi:

**1. Munozara metodlari.** Bu turkumga asosan guruh doirasida o`tkaziladigan munozaralar, bellashuvlar, kundalik Amaliy faoliyatda uchraydigan turli hodisalarni tahlil qilishlar, ahloqiy hulq-atvor

shakllarini muhokama qilishlar kiradi. Ba'zan bu toifa usullar xulq-atvor yoki amaliy muloqot deb ataladi.

**2. O`yin metodlari.** Bunga didaktik va ijodiy o`yinlar; boshqaruv faoliyatiga taalluqli amaliy o`yinlar; rolli o`yinlar, hulq-atvor shakllariga o`rgatish, o`yinli psixoterapiya, psixodramatik korrektsiya; kontro`yinlar kiradi. Ko`pincha, bu turkum metodlarni qisqacha rolli trening deb atashadi.

**3. Pertseptiv treninglar.** Bu turkumga asosan maxsus guruhlarda olib boriladigan sezgirlik treninglari, senzitiv treninglar kiradi. Bundan ko`zlangan asosiy maqsad shaxslararo muloqot jarayonida shaxsiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradiganlarda o`ziga ishonch, sezgirlik va insoniy munosabatlar sirlarini o`rgatish va shaxsning o`zi hamda yaxlit psixofiziologik tasavvurlarni yanada oydinlashtirishga yordam berishdir. Oxirgi paytlarda Ushbu va boshqa maqsadlarda ham videotrening usuli paydo bo`ldiki, bu fan-texnika taraqqiyotining insoniy munosabatlar sohasiga ham kirib kelganligidan dalolat beradi. Videotrening ko`proq shaxsiy hulqni korrektsiya qilish-tuzatish maqsadlariga xizmat qiladi. Ijtimoiy psixologiyada barcha trening metodlariga xos bo`lgan quyidagi umumiy sifat yoki xususiyatlar farqlanadi:

- Eng muhim xususiyat-bu faollikdir, ya'ni trening guruhi a'zolari mashg`ulotlarning qaysi turi bo`lmasin, avvalo faol shaxsiy mavqeda bo`lishlari va uni mashg`ulot oxirigacha saqlashlari shart, bu holat umuman ushbu uslubning faolligini bildiradi;-Trening xususida gap ketganda har doim konkret ijtimoiy guruh nazarda tutiladi, ya'ni albatta konkret, kompakt, real guruhning bo`lishi ham treningning muhim jihatlaridandir;

- Guruhning har bir alohida shaxs psixikasi va hissiy holatlariga ta'sirining ro`y berishi ham uning har bir turiga xos bo`lgan xususiyatidir;

- Mashg`ulotlarning bir necha marta kaytarilishi ya'ni trening samaradorligi bir martalik mashg`ulot bilan cheklanmay, odatda 4-8 marttagacha davom etishi mumkin.

## **Darslik va o`quv qo`llanmalar ro`yxati.**

### **Asosiy**

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Farg`ona 2002.
2. Kuzmin E.S. Osnovo` sotsialnoy psixologii. LGU 2001.
3. Paro`gin V.D. Osnovo` Sotsialno-psixologicheskoy teorii. M. 2001.

### **Qo`shimcha**

1. Petrovskiy A.V. Sotsialnaya psixologiya. M. 2003.
2. Soloveva O.V. Obratnaya svyaz v mejlichnostnom obshenii. M. 1992
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, 1999y
4. M.Abdullajanova va boshqalar. Ijtimoiy psixologik trening. Fargona. 2003

